

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiy universiteti mustaqil tadqiqotchisi PhD.

Orcid: 0009-0004-6104-3044

E-mail: sardor-T-1993@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqobat razvedkasi, korxonalar, korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligi, xavf-xatarlar, strategik barqarorlik.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты использования маркетинговых инструментов в обеспечении экономической безопасности промышленных предприятий, выявлены существующие проблемы, а также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: конкурентная разведка, предприятия, экономическая и финансовая безопасность предприятий, угрозы и риски, стратегическая устойчивость.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of using marketing tools to ensure the economic security of industrial enterprises, identifies existing problems, and develops scientifically grounded proposals and recommendations aimed at eliminating them.

Keywords: competitive intelligence, enterprises, economic and financial security of enterprises, risks and threats, strategic sustainability.

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqobat muhitining keskinlashuvi hamda tashqi va ichki iqtisodiy tahdidlarning ortib borishi sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bozor kon'yunkturasining tez o'zgarishi, talab va taklif muvozanatining beqarorligi, resurslar narxining oshishi hamda raqobatchilar tomonidan qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar korxonalar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash faqat moliyaviy yoki tashkiliy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmay, balki bozorga moslashuvchan, strategik va integratsiyalashgan yondashuvlarni talab etadi.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan samarali foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki marketing faqat mahsulotni sotish yoki bozorda ilgari surish vositasi emas, balki u bozor tahlili, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, raqobat muhitini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim axborot bazasini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, marketing vositalari orqali xavflarni oldindan aniqlash, ularni kamaytirish va korxonalar barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida marketing vositalaridan foydalanish amaliyoti ko'p hollarda an'anaviy yondashuvlarga asoslanib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari bilan yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkoniyatlari cheklanmoqda, risklarni boshqarish tizimida kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu bois marketing vositalarini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmiga tizimli ravishda joriy etish va ularning samaradorligini oshirish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat razvedkasi muammosining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda ilmiy-metodologik jihatlarini xorijiy iqtisodiy maktablar doirasida keng o'rganilgan. Xususan, hududiy joylashuv nazariyasi, bozor makoni va ishlab chiqarishni optimallashtirish masalalari Talaoui Y. [2], Nyanga C. [3] kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Keyinchalik raqobat muhiti, transmilliy biznes faoliyati va ishlab chiqarish tarmoqlarining global integratsiyasiga doir masalalar Liam Fahey [4], John Dunning hamda boshqa tadqiqotchilar ishlarida rivojlantirilgan. Ushbu yondashuvlar raqobat muhitini tizimli tahlil qilish hamda korxonalarining strategik qarorlarini axborot asosida shakllantirishga xizmat qiladigan ilmiy zaminni yaratdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Beshmkov M. A. [6], Isayeva N. A. [7], Serebryakova T. Yu. [8], Doronin A. [9], Lemke G. E. [10], Satler V. V. esa korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni alohida yo'nalish sifatida shakllantirganlar.

Mahalliy olimlar — Burxanov A. U. [11], Abulqosimov X. P., Pardayev M. K., Aminov Z. Yu. va boshqalar — sanoat korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqobat razvedkasi instrumentlarini sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi sifatida kompleks qo'llash, shuningdek, uning metodologik va tashkiliy modellarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Shu bois sanoat korxonalarini faoliyatida raqobat razvedkasi vositalaridan tizimli foydalanish, axborot-tahliliy ta'minotni kuchaytirish va xavf-xatarlarni prognoz qilish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan metodologiyani takomillashtirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifa sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, strategik barqarorlikni ta'minlash va milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv, tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullar hamda taqqoslama va empirik tahlil metodlari tashkil etadi.

Avvalo, 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va hududlari kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasi statistik tahlil qilindi. Ushbu jarayonda trend tahlili, o'sish sur'atlari, indeks usullari va strukturaviy tahlil qo'llanildi. Hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash maqsadida solishtirma tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning muhim qismi sifatida sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni baholashda Shahlo N. V. tomonidan taklif etilgan yondashuv asosida sifat va miqdoriy mezonlar tizimi qo'llanildi. Ushbu yondashuv tahdidlar ehtimolini baholash, ularning korxonalar barqarorligiga ta'sirini aniqlash hamda integrallashgan xavfsizlik darajasini hisoblash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror va tez sur'atlarda o'sib borganini kuzatiladi. Agar 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 1 334,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib u 23 679,4 ming so'mga yetgan. Bu qariyb 17,7 baravar o'sish demakdir. Mazkur tendensiya mamlakat sanoat siyosatining bosqichma-bosqich liberallasuvi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi hamda sanoatni hududiy rivojlantirish strategiyalarining natijadorligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik), Ming so'm

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	1334,6	3118,3	10771,8	13061,9	15520,2	18098	23679,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	420,9	1343,5	7316	8589,6	8981,4	8942,7	12064
Andijon viloyati	1800,8	3379	11519,2	11156,6	16529,9	21964	26439,6



Buxoro viloyati	1016,1	2857,2	9080,1	10587,4	13647,2	15719	20501,3
Jizzax viloyati	457,9	1167,3	4170,8	6253,4	7812,5	12871,5	16357,3
Qashqadaryo viloyati	1857,1	2914,8	4417,4	5567,2	6566,7	8169,2	10865,8
Navoiy viloyati	4683,4	10087,9	64737,5	71925,7	80786,1	95593,6	134209
Namangan viloyati	434,2	1109,7	3878,7	5068,6	6112,9	7225,6	10228,2
Samarqand viloyati	629,5	1717,3	4698,6	5723,6	7163,2	7915,6	10676,7
Surxondaryo viloyati	355,9	801,2	2004,8	2461,4	2605,5	3113,7	4746,9
Sirdaryo viloyati	1285,8	3598,6	9361,5	11282,8	13532,3	16953,5	21751,7
Toshkent viloyati	2092,1	5187,3	22356,3	28622,3	31664,5	35371,9	44983,4
Farg'ona viloyati	1036	2063,3	5732	7195,5	7698,4	8906,7	11185,8
Xorazm viloyati	397,5	1511,1	5009,6	7155,5	9439,5	10921	14120,6
Toshkent shahri	3083,1	7970	25052,6	31976,2	37398,7	41391,6	55807,3

Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda o'sish sur'atlarining keskin jadallashgani e'tiborga molik. 2017-yilda ko'rsatkich 4 594,7 ming so'mni, 2018-yilda esa 7 141 ming so'mni tashkil etgan. Bu davr sanoatni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. 2020-yilda global pandemiya sharoitiga qaramay, sanoat ishlab chiqarish hajmining pasaymasdan, aksincha, o'sishda davom etgani milliy sanoatning nisbatan barqarorligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (yillik), Ming so'm

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	479,1	1344,6	3778,6	4443,9	4067,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	151,3	591,4	1467,4	1521,4	1219,6
Andijon viloyati	1251,3	2482,7	8705,3	8017,8	11119,9
Buxoro viloyati	463,6	1273,1	3462,6	4368,2	2458,1
Jizzax viloyati	225,1	695,2	2143,4	2810	2819,7
Qashqadaryo viloyati	244,1	699,9	1495,6	1382,3	871,7
Navoiy viloyati	528,6	1921,1	3875,7	4241,8	3021,5
Namangan viloyati	250,9	813,6	2269,1	2864,1	2596,2
Samarqand viloyati	442,1	1079	3025,1	3604,9	2428,8
Surxondaryo viloyati	136,8	395,3	814	973,7	624,8
Sirdaryo viloyati	350,9	1448,5	3294,7	4275,8	2307,5
Toshkent viloyati	510,6	1790,3	4921,2	6854,8	6165,6
Farg'ona viloyati	360,7	831,1	2736,6	3049,1	1939,6



Xorazm viloyati	219,3	1019,2	3430,1	4501,2	5294,6
Toshkent shahri	1183,5	3665,2	9456,7	12556,3	11446,6


2021–2024-yillarda kuzatilgan tezkor o‘shish sanoat klasterlari, yirik infratuzilma loyihalari va hududlarda sanoat zonalarining faoliyatga tushirilishi bilan izohlanadi. Umuman olganda, respublika darajasidagi ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasidagi sanoat rivojlanishidagi tafovutlarni chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois keyingi jadvallarda sanoat jihatidan yetakchi, o‘rtacha va nisbatan past rivojlangan hududlar alohida ko‘rib chiqiladi.

Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi va uning viloyatlari bo‘yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste‘mol tovarlari hajmini 2010–2022-yillar davomida ko‘rsatadi. Umumiy tendensiyaga ko‘ra, mamlakatda aholi jon boshiga tovar ishlab chiqarish sezilarli darajada o‘sgan: 2010-yilda 479,1 ming so‘mdan 2022-yilda 4 067,9 ming so‘mgacha, bu taxminan 8,5 barobar o‘shishni anglatadi. Bu raqamlar iqtisodiy o‘shish, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va milliy iqtisodiy siyosat samaradorligini aks ettiradi.

Viloyatlar kesimida esa sezilarli tafovutlar mavjud. Masalan, Andijon viloyati 2010-yilda 1 251,3 ming so‘m bilan respublika o‘rtachasidan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 11 119,9 ming so‘mga yetib, boshqa viloyatlarga nisbatan yetakchi pozitsiyani egallagan. Toshkent shahri va Toshkent viloyati ham yuqori natijalarni ko‘rsatadi: 2022-yilda mos ravishda 11 446,6 va 6 165,6 ming so‘m. Bu hududlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanganligi, infratuzilma hamda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, respublika bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining oshishi barqaror iqtisodiy o‘shish bilan izohlanadi, ammo hududiy tafovutlar iqtisodiy rivojlanishning notekisligini aks ettiradi. O‘shish sur‘atlari va pasayishlar hududlarning strategik rivojlanish siyosati, resurslar taqsimoti, sanoat quvvatlari va mahalliy investitsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli kelajakda hududiy barqarorlikni ta‘minlash uchun resurslarni samarali taqsimlash va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Mazkur maqolada raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish asosida sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash modeli taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan raqobatchi bo‘lgan “Kvarts” AJga nisbatan raqobat razvedkasini o‘tkazish metodologiyasi

Raqobat razvedkasini joriy etish harakatlari algoritmi quyidagilarga asoslanadi: makromuhitni tahlil etish (foydali strategik sheriklarni izlash, bozor rivojlanishini prognozlash, strategik investitsiya qarorlari bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish); raqobatchi korxonaning mikromuhitini tahlil etish (raqobatchining asosiy kontragentlarini aniqlash, raqobatchilarni qo'llab-quvvatlaydigan tashqi obyektlar va ularning aloqalarini aniqlash, raqobatchilarning joriy moliyalashtirish manbalarini aniqlash); tovar siyosatini ishlab chiqish (raqobatchining istiqboldagi investitsiya resurslarini baholash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash, yakuniy faoliyat rentabelligini baholash); bozor muhitining segmentlanishini baholash (segmentlanishning deskriptiv o'zgaruvchilarini aniqlash, raqobatchilar bozori va maqsadli segmentlarni qamrab olish strategiyalarini aniqlash); raqobatchilarning bozordagi o'rnini aniqlash (raqobatchilar afzalliklarini va raqobat qiluvchi tovarlarning bozordagi o'rnini aniqlash) hamda narx siyosati (raqobatchi korxonaning narx siyosatini monitoring qilish, raqobatchi korxonaning iste'molchilar xayrixohligini oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan dasturlarini aniqlash).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil va yuqori sur'atlarda o'sishi mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosati, iqtisodiy liberallashtirish va investitsion faollikning natijadorligini yaqqol namoyon etgan. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda sanoatni modernizatsiya qilish, klaster tizimini joriy etish va hududiy industrial zonalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga o'tilgani kuzatiladi. Shu bilan birga, pandemiya sharoitida ham sanoat ko'rsatkichlarining pasaymasdan o'sishda davom etgani milliy iqtisodiyotning barqarorlik darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tahlili ham umumiy o'sish tendensiyasini tasdiqlasa-da, ayrim yillarda pasayish holatlari qayd etilgani ichki bozor barqarorligi va talab dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, zamonaviy boshqaruv va tahlil instrumentlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan raqobat razvedkasi (competitive intelligence) modeli sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, Kvarts AJ faoliyatini tahlil qilish misolida mazkur yondashuv orqali bozor muhitini chuqur o'rganish, xavflarni oldindan aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining kengayishi asoslab berildi. Model doirasida makro va mikromuhit tahlili, tovar va narx siyosati, bozor segmentatsiyasi hamda raqobatchilar pozitsiyasini baholash kabi bosqichlar korxonalar barqarorligini ta'minlashda tizimli yondashuvni shakllantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalari va raqobat razvedkasi elementlarini integratsiyalash orqali xavflarni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat alohida korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, balki milliy sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [The Business Research Company – Chemicals Global Market Report](#)
2. Yassine Talaoui, Mikko Kohtamäki. "35 Years of Research on Business Intelligence Process: A Synthesis of a Fragmented Literature" // *Management Research Review*. – 2020. – Vol. ahead-of-print. DOI: 10.1108/MRR-07-2020-0386.
3. Charles Nyanga, Joseph Pansiri, D. Chatibura. "Enhancing Competitiveness in the Tourism Industry through the Use of Business Intelligence: A Literature Review" // *Journal of Tourism Futures*. – 2019. – Vol. 6, No. 2. – P. 139–151. DOI: 10.1108/JTF-11-2018-0069.
4. Liam Fahey. "Connecting Strategy and Competitive Intelligence: Refocusing Intelligence to Produce Critical Strategy Inputs" // *Strategic Direction*. – 2007. – Vol. 23, No. 4. DOI: 10.1108/SD.2007.05623DAD.003.
5. Washington Platt. *Strategic Intelligence Production: Basic Principles*. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.
6. М. А. Бещмков. «Экономическая безопасность промышленного предприятия в условиях кризисного развития» // *Менеджмент в России и за рубежом*. – 2000. – № 2. – С. 7–17.
7. Н. А. Исаева. «Экономическая безопасность предприятия» // *Вестник Екатеринбургского института*. – 2009.
8. Л. Н. Устинова. «Экономическая безопасность предприятия: анализ, структура, модель» // *Национальные интересы: приоритеты и безопасность*. – 2011. – № 45(138). – С. 67–71.
9. А. И. Доронин. *Бизнес-разведка*. – Москва: Ось-89, 2010. – 704 с.
10. Г. Э. Лемке. *Коммерческая разведка для конкурентного превосходства*. – Москва: Московская финансово-промышленная академия, 2011. – 352 с.
11. В. В. Сатлер. «Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия» [Электронный ресурс] // *Актуальные вопросы экономических наук*. – 2009. – С. 170–175.
12. А. У. Burxanov. Moliyaviy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 164 b.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100